
“Fan va turmush” jurnalining navbatdagi 2022-yil 1-soni nashrdan chiqdi

Aziz obunachilar!

“Fan va turmush” jurnalining navbatdagi 2022-yil 1-soni nashrdan chiqdi.



Jurnal sahifalarida O’zbekistonda xavfli virusli kasalliklarga qarshi qanday choralar ko’rilgani, endilikda

“muloyim qotillar” – V va C gepatiti viruslaridan qo’rqmasdan yashash mumkinligi haqida qiziqarli materiallar berilgan.

1941-yilda urushning eng og’ir kunlarida butun sobiq Sovet Ittifoqi aniq vaqt signallarisiz qoldi. Toshkent observatoriyasidan to’g’ridan-to’g’ri butun mamlakat va frontga aniq vaqt signallari qanday uzatilgani va eski shaharlik usta o’z davrining eng aniq soatining qalpog’ini qanday ta’mirlagani haqida bilib olasiz.

Soat mavzusi bundan roppa-rosa 75 yil muqaddam toshkentliklar birinchi marta “malinali” qo’ng’iroq jarangini eshitgani haqidagi hikoya bilan davom etadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Toshkentga soat-kurant olib kelingan Allenshtayn shahri bugungi kunda qanday nomlanadi. Va bu shahar "Erni to’xtatgan va Quyoshni harakatga keltirgan" Nikolay Kopernik bilan qanday bog’liq, va nima uchun qo’ng’iroqlar jarangi “malinali” deb ataladi va 1966-yilgi zilzila paytida qo’ng’iroqlardan biri buzilganidan keyin uning jarangini kim tikladi.

Koinotda bizga o’hshagan qancha sivilizatsiyalar bo’lishi mumkin, ular nega biz bilan aloqaga chiqishmayapti?! O’zbekistonlik yosh havaskor-tadqiqotchilar Kepler 18b sayyorasiga qanday qilib va qaerdan radioxabar yuborishmoqchi?

Qadim odam toshqoyalarga rasm chizib qanday orzularni, his-tuyg’ular va tasavvurlrni ifodalamoqchi bo’lgan?

Alisher Navoiy nega bir gadoning bir baytini “sotib olgan” va shundan keyin qaysi g’azalini yozgan?

e sonini eshitganmisiz? Uning yordamida qancha daromad olishingizni aniq hisoblab bo’ladimi?

Jurnalimiz materiallaridan astronomlar bizning Galaktika – Somon yo’li markazidagi Qora o’ra sharpasini birinchi marta qanday suratga olgani bilan tanishasiz.

Bu va boshqa ko’plab ma’lumotlarni O’zbekistondagi yagona ilmiy-ommabop jurnal – "Fan va turmush" ning telegram kanalidagi sahifasidan kuydagi adresdan https://t.me/fan_va_turmush bilib olasiz!

"Fan va turmush" jurnaliga obuna bo’ling, bunga hech afsuslanmaysiz. Biz ishonchingizni albatta oqlaymiz! "Fan va turmush" jurnalining obuna indeksi 899.